

O‘ZBEK MILLIY RAQS SAN’ATIDA IJROCHILIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISHNING TARIXIY-METODIK ASOSLARI TAHLILI



Abdramanova Dilbar

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat
instituti Nukus filiali

Folklor va etnografiya ta’lim yo‘nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19381501>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek milliy raqs san’atining tarixiy taraqqiyot yo‘li va ijrochilik mahoratini shakllantirishning o‘ziga xos metodik xususiyatlari haqida so‘z etiladi. Shu bilan birga, an’anaviy “ustoz-shogird” maktabidan boshlab, zamonaviy professional sahna ijrochiligigacha bo‘lgan jarayonni qisqacha qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek milliy raqsi, ijrochilik mahorati, ustoz-shogird, professional raqs, repetitsiya, baletmeyster, badiiy talqin, milliy qadriyatlar.

Аннотация. В данной статье рассматривается историческое развитие узбекского национального танцевального искусства и специфические методические особенности формирования исполнительских навыков. Одновременно дается краткий сравнительный анализ процесса от традиционной школы «учитель-ученик» до современного профессионального сценического искусства.

Ключевые слова: узбекский национальный танец, исполнительское мастерство, преподаватель и ученик, профессиональный танец, репетиция, хореограф, художественная интерпретация, национальные ценности.

Abstract. This article discusses the historical development of the Uzbek national dance art and the specific methodological features of the formation of performing skills. At the same time, a brief comparative analysis of the process from the traditional “teacher-student” school to modern professional stage performance is provided.

Keywords: Uzbek national dance, performance skills, teacher and student, professional dance, rehearsal, choreographer, artistic interpretation, national values.

O‘zbek xalqi chinakam boy raqs san’ati merosiga ega. Bizgacha yetib kelgan raqslarning tur va janrlari rang-barangligi hayratda qolarli darajada. Shu kunlardagi raqs san’atimizda bir qancha qatlam aniq ko‘rinib turadi: kelib chiqishiga ko‘ra ajdodlarimizning ibtidoiy tasavvurlariga aloqador muqallidlar va marosim o‘yinlari; bir zamonlar zardushtiylikning ramziy obrazlari va muqaddas kitobi “Avesto” arkonlari bilan bog‘liq holda maydonga kelgan raqslar; o‘rta asrlarda maqom musiqasi bilan mustahkam aloqada shakllangan mumtoz raqslar; Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklari hududlarida tarkib topgan Buxoro, Xorazm va Farg‘ona raqs uslublari; XX asrda professional va havaskorlik ansambllari faoliyatida keng rivojlangan xalq sahnaviy raqslari; zamonaviy estrada, sirk, teatr raqslari, bolalar raqsi va hokazo.

Tabiiyki, raqs san'atining mana shu barcha turlari, janrlari, uslublari bir-biridan ajratilmagan, balki malakali artistlar va havaskorlar ijodida, xalq va professional ansambllar faoliyatida ular bir-biri bilan bog'langan va o'zaro ta'sirlangan holda yashab keladi.

O'zbek raqs san'atining ko'p asrlik tarixiy taraqqiyoti ibtidoiy marosim o'yinlaridan tortib, zardushtiylik davri ramzlari, o'rta asrlar mumtoz maqom yo'nalishlari hamda XX-XXI asrlar professional sahna va ommaviy maydon raqslarigacha bo'lgan keng qamrovli bosqichlarni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, Buxoro, Xorazm va Farg'ona kabi hududiy raqs maktablarining o'ziga xosligi bugungi zamonaviy san'atda an'anaviylik va havaskorlik ijodi bilan o'zaro uyg'unlashib, yaxlit bir ijodiy boylik sifatida izchil taraqqiy etib kelmoqda. Ammo shu kungacha o'zbek raqs madaniyati uchun uch yo'nalish yetakchi va muhimdir: u ham bo'lsa, an'anaviy raqs, xalq sahnaviy raqsi va balet san'ati.

Hamon o'zbek raqs san'atida bir-biridan gavda holatlari, qo'l va oyoq harakatlari, tarkibi, kompozitsion tuzilishi, liboslari bilan farq qiluvchi Xorazm, Buxoro va Farg'ona uslublari aniq ko'zga tashlanib turadi. Raqs ustalari, baletmeysterlar, ansambllarning rahbarlari raqs uslublarning o'ziga xosligini, estetik xususiyatlarini sof saqlashga harakat qilib kelishadi. Xorazm va Buxoroda hozir ham qayroq bilan usul berish, qo'l va oyoqlarga qo'ng'iroqchalar bog'lab chiqish (zang), Xorazm raqqosalarining jig'ali qalpoqlari va ko'krakka taqiladigan bargaklari, Buxoro raqqosalarining ko'pincha zardo'zi keng ko'ylaklari va baland qasavali bosh kiyimlari hamon qadrlidir. Farg'ona raqsida esa hamon doira usullari, puxta ishlangan qo'l harakatlari, jilvalari muhim o'rin egallab keladi. Xorazm, Buxoro va Farg'ona raqs uslublari tarkibida shu kunlarda ham, to'liq holda bo'lmasa-da, "Mayda o'yin" va "Katta o'yin" turkum raqslari yashab keladi. "Mayda o'yin" turkumi tor doiraga, mehmonxonalariga, "Katta o'yin" esa maydonlarga, sayilgohlarga mo'ljallangan.

"Katta o'yin" turkumida XVIII-XIX asrlarda o'spirin va yigit raqqoslar yetakchilik qilgan bo'lsa, XX asrda xotin-qiz raqs ustalari ikkala turkumda ham yetakchi mavqega ega bo'ldilar. Rajabali Nazarzoda, Ali Ardobus Ibrohimov, Isaxor Oqilov, Uchqun G'aniyev, Nazriddin Shermatov, ba'zi xorazmlik raqqoslarni istisno qilganda, erkak raqsi o'tgan asrda yaxshi rivojlanmadi. Garchi so'nggi yillarda yigitlar raqsini tiklashga e'tibor kuchaygan bo'lsa-da, biroq baribir mamlakatimiz raqs san'atida xotin-qiz raqqosalar yetakchi o'rinni egallab kelmoqdalar.

O'zbek raqsining lokal maktablarida shu kungacha xotin-qizlarning an'anaviy turg'un repertuar va ijro uslubiga ega bo'lgan qadimiy musiqiy-raqs san'ati yashab keladi. Ansambllar odatda anchayin ixcham bo'lgan: uchta cholg'uchi, ikkita raqqosa va shogirdlar. Shunga qaramasdan, ansambllar bir necha soat davomida muayyan mazmun va kompozitsion tuzilishga ega tomosha ko'rsatishga qodir bo'lishgan. Bu muqaddima, uch-to'rt asosiy qism va xotimadan tashkil topgan o'ziga xos an'anaviy raqs teatridir. Unda jonli so'z (murojaat, deklamatsiya), qo'shiq (yetakchi xonanda doirada usul berib, Xorazmda — garmonda qo'shiq boshlaydi, boshqalar jo'r bo'lishadi), raqs (asosan yakkaxon raqqosa, kamdan-kam ikki raqqosa) birikadi, uyg'unlashadi. Biroq, raqs yetakchi, hal qiluvchi komponentdir, chunki sozanda, xalifa, yallachi tomoshalarida raqs vositalari bilan muhabbat, go'zallik va yaxshilik ramzi bo'lmish jozibali go'zal qiz obrazi yaratiladi. Qo'shiq va usul ularga yordamchi vazifasini bajaradi. Zamonaviy sahna talablari asosida sahnalashtirilgan xalq va professional raqslar hamda shu asosda yaratilgan va teatr binosi ichida ko'rsatishga mo'ljallangan yangi raqslar xalq sahnaviy raqsi deb belgilandi. Shu boisdan bunda barcha asosiy raqs turlari va uslublarni ko'rish mumkin[1:6].

O'zbek raqs san'ati an'anaviy yo'nalish, xalq sahnaviy raqsi va balet kabi uchta asosiy ustunda rivojlanib kelmoqda. Xorazm, Buxoro va Farg'ona maktablari o'zining liboslari, harakatlar dinamikasi qadimiy turkumlari bilan o'ziga xosligini saqlab qolgan. Garchi bugungi

kunda professional sahnada xotin-qizlar ijrosi yetakchilik qilsa-da, xalfa, sozanda va yallachilik kabi an'anaviy raqs teatrlari xalqimizning estetik dunyoqarashi va boy madaniy merosini o'zida mujassam etib, zamonaviy san'at bilan uyg'un holda yashashda davom etmoqda. Ushbu hududiy va janriy rang-baranglik o'z-o'zidan shakllanib qolgan emas. Uzoq asrlik tarixiy tajriba hamda milliy ijrochilik maktablarining o'ziga xos qonuniyatlari natijasidir. Har bir maktab o'ziga xos libos va uslubga ega bo'lsa-da, ularni yagona bir milliy asos o'zbek raqsiga xos bo'lgan umumiy plastik va badiiy xususiyatlar birlashtirib turadi. Binobarin, har qanday hududiy talqin negizida o'zbek raqs san'atining tub mohiyatini belgilovchi individual harakatlar silsilasi va milliy xarakter yotadi.

O'zbek raqsi o'zining har xil uslublariga, turli-tuman janrlariga, ijro etish yo'llariga ega bo'lishi bilan birga, o'ziga xos aniq xarakteriga ham egadir. O'zbek raqslari o'zining aniq ritmlariga, ildam harakatlariga egaligi va qo'l harakatlarining ma'nodorligi bilan bir-biriga yaqin turadi. Ularda sakrash va parvoz qilish harakatlari yo'q, raqqos o'yinga tushganda oyoqlarini deyarli yerdan uzmaydi. Raqs bir necha turdagi yurish uslublari va doira bo'ylab hamda bir joyda turib aylanishlar asosida tuziladi. Aniq va dona-dona harakat butun gavdaga ham aniqlik va muayyanlik beradi. Gavdaning yuqori qismida bajariladigan turli-tuman titrashlar va barmoqlarning chiroyli shakllar yasashi, raqsga ta'sirchanlik baxsh etadi.

Xalq ichidan chiqqan artistlar ko'pincha o'z san'atlari bilan faqat bahor va kuz mavsumlarida shug'ullanardilar, chunki sayillar va oilaviy to'y-tomoshalar asosan shu vaqtlarda o'tkazilardi. Boshqa vaqtda to'y-tomoshalar shuhrat qozongan ba'zi san'at ustalarigagina topilar edi. Ular saroylarga, boylarning tantanalariga, boyvachchalarning bazmlariga taklif qilinardilar. Shuning uchun ham deyarli hamma artistlar san'at sohasidagi ishlari bilan birga, boshqa bir hunar bilan, ko'pincha og'ir jismoniy mehnat bilan shug'ullanishga majbur edilar.

O'zbek xoreografiya san'atining turli-tuman janr va shakllarga egaligi, ulardan ko'plarining nihoyat darajada murakkabligi artistlardan tabiiy talantdan tashqari juda katta professional ustalikni ham talab qilardi. San'atning biror sohasini o'rganish uchun yillab vaqt sarf qilinar, janr qanchalik murakkab bo'lsa, uni ijro etish uslublarini o'rganish uchun ham shunchalik ko'p vaqt kerak bo'lar edi. Shogird odatda san'atkorlar oilasida tayyorlanar; xalqning ko'p asrli tajribasi va tarbiya metodi otadan bolaga meros bo'lib qola berardi. Yoki yoshi o'tib qolgan usta o'ziga chetdan shogird olardi. Ko'p xalq raqqoslari raqsni sayillarda, choyxonalarda, qalandarxonalarda mashhur ustalarning o'yinlarini ko'rish bilan o'rganardilar. Bularning mohir san'atkor bo'lishlari juda qiyin edi, chunki xalq san'atga juda katta talab qo'yar edi. Mustaqil ishlash huquqiga ega bo'lish yoki xalq artistlari gruppalariga (yuqorida aytilganidek o'zbek artistlari o'z kasblari bo'yicha sexlarga yoki gruppalariga birlashardilar) kirish uchun yosh artist shu janrning eng kuchli namoyandalari oldida imtihon topshirishi kerak edi[2:23].

O'tmishda shakllangan ushbu qat'iy talabchanlik va imtihon tizimi vaqt o'tishi bilan professional sahna san'atining poydevoriga aylandi. Agar ilgari mahoratni egallash ustozlarning o'yinini kuzatish va ularning sinovidan o'tish orqali namoyon bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda bu jarayon repetitsiya zallarida yanada chuqurroq ilmiy-metodik mazmun kasb etmoqda. Ya'ni, ustoz ko'rgan san'atkorning mustaqil ijod qilishga intilishi va har bir harakatda yangilik qidirishi an'anaviy "ustoz-shogird" maktabidan zamonaviy baletmeyster va ijrochi hamkorligiga ko'chdi. Shu ma'noda, raqsning texnik murakkabligini o'zlashtirish bilan birga, uning ichki g'oyaviy qatlamlarini kashf etish professional ijrochilikning asosi bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki, raqsning sahnadagi har bir repetitsiyasi jarayonida yangidan yangi faktlar, xatti-harakatlar, fikr-g'oya, vazifalar aniqlanib kashf etilib boradi. Bu jarayonda ijrochining vazifasi bu obraz boshqa ijrochi tomonidan topilgan, bajarilgan xatti-harakatni bugun ham ko'r-ko'rona

o'zidek qilib qaytarishidan qochishi kerak. Baletmeyster ijrochilar ongida har bir repetitsiya jarayoniga yangidan yondashib, har bir xatti-harakatdan tabiiylik, haqiqiylik, mantiqni qidirishni odat qilish lozimligini singdirib borishi kerak.

Raqqosalar obraz ustidagi ish jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yishi, ya'ni har bir ijodiy jarayonda kechagi yoki o'tgan kungi ijrosining natijasini qaytarishga urinmay yanada jonli, tabiiy organik xatti-harakatni amalga oshirishga intilishlari kerak. Repetitsiya jarayonlarida har bir harakatni takrorlash davomida uni har turli yangi topilmalar bilan boyitishni va shu maqsadda xatti-harakatning yangi shart sharoitini o'ylashi, izlashi kerak. Buning uchun raqqosa, eng avvalo, berilgan obraz shart-sharoitida o'zini ko'rishi, o'rganishi lozim.

Aksariyat hollarda raqs matni raqqosalarga shoshilinch tarzda eshittiriladi. Bunday tanishtirish raqqosa ongiga raqs matni haqidagi ilk taassurotning sayoz tarzda o'rnashishiga sabab bo'ladi. Raqs matni bilan ilk tanishuv jarayoni va u haqdagi dastlabki taassurot keyingi raqs obrazi ustida ishlash bosqichida muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham raqs ijrochisi obraz yaratish jarayonining ushbu bosqichiga baletmeyster tomonidan alohida e'tibor qaratilishi zarur. Mazkur bosqich bo'lajak yosh raqqosaning raqs obrazi bilan ilk tanishuv bosqichigina emas, raqqosaning chinakam ijodiy izlanishi, obraz ustida ishlash bilan ham ilk bora amaliy tanishuv jarayonidir. Raqqosaning yaratajakk obrazi ham individual badiiy mustaqil ijod mahsuli bo'lib vujudga keladi. To'g'ri, mumtoz, klassik raqslarga zamonaviy ruhda yondashuv ba'zi hollarda shu raqsga nisbatan noto'g'ri munosabatni keltirib chiqarishi mumkin. Biroq, qanday bo'lmasin, xolisona, mustaqil yondashuv raqqosa ijodiga individuallik bag'ishlaydi. Raqs ijrochilari avvaldan ma'lum va mashhur raqs bilan tanishar ekanlar, uni ilk marotaba raqs matnini o'qiyotgandek yondashishlari maqsadga muvofiq.

Agar raqs guruhli bo'lsa, baletmeyster raqsning yakkaxon ijrochisiga jiddiy e'tibor qaratsin. Raqs ilk marotaba ijro etilishida hayajonsiz, obrasiz ishlashi kerak. Ana shundagina raqsni har bir ijrochi o'z mustaqil qarashi, xulosasi bilan qabul qilishiga zamin yaratiladi. Raqsni ilk ijro etish bosqichidan so'ng raqqosaga o'z obraziga qanday yondashishi kerakligi ayon bo'lsa, bu yaxshi, albatta. Biroq biz raqqosa o'z ijodida baxtli tasodiflarga suyanib qolmasligi kerakligini ta'kidlashimiz lozim. Raqqosa ijodida his-tuyg'u bilan bir qatorda mahorat qoidalarini ham egallashi kerakligi ijrochilar ongida chuqur singdirilgan bo'lishi kerak. Raqs matni bilan tanishishdan avval ijrochi ongiga raqs haqida biron-bir fikrni suqishtirish yuqorida aytib o'tganimizdek mutlaqo noto'g'ri. Raqs matni haqida ijrochining o'zi fikr yuritgani, hatto u noto'g'ri fikr bo'lsa ham o'zi xulosa chiqargani ma'qul. Biroq shuni ham hisobga olish kerakki, dunyoqarashi birmuncha tor, raqs haqida biron aniq fikr yuritishga qiynaluvchi ijrochilar ham uchrab turadi. Bunday holatlarda raqqosaga uning mustaqil fikrlashiga zamin yaratuvchi yo'l-yo'riq ko'rsatish baletmeysterining vazifasi hisoblanadi.

Raqs obrazi to'g'risidagi ilk taassurotlar keyinchalik amaliy ish jarayonida albatta o'zgarishi, qayta ishlashni talab etishi mumkin. Obrazning keyingi tahlillarida aniq, to'g'ri xulosa chiqarish va baho berish, uning aniq g'oya, maqsad vazifasini aniqlash mumkin bo'ladi. Shu tarzda asta-sekinlik bilan murakkablashtirib borilgan ijodiy jarayon mazmun-mohiyatiga chuqur kirib borishga, ijrochi ongiga singishiga imkoniyat tug'diradi. Obraz borasidagi so'nggi aniq xulosa va bahoni ijrochiga avval boshdayoq ma'lum qilinsa yuqoridagi ijodiy izlanish jarayonidan ko'zlangan maqsad – raqsning ijrochi ongida singishiga, o'rnashishiga imkon yarata olmaydi, demak, raqqosaning yaratajakk obrazi tugal, yaxlit bo'lmaydi[3:45].

Shu boisdan ham, raqs sahnasida komil obraz yaratish jismoniy harakatlar yig'indisi emas, ijrochining chuqur intellektual va ruhiy tayyorgarligi mahsulidir. Ijodiy jarayonning bunday murakkab bosqichlari zamirida san'atning odamzod ma'naviyatiga ko'rsatadigan beqiyos kuchi

yotadi. Aslida, raqqosaning o'z obrazi ustida chekayotgan zaxmati va mustaqil izlanishlari pirovardida san'atning oliy maqsadiga ya'ni inson ruhiyatini boyitishga xizmat qiladi. San'atning bu qadar qudratli kuchi esa uning jamiyat va inson hayotidagi o'rni bilan belgilanadi. San'at insonga butun hayoti davomida yo'ldoshdir. U inson hissiyotiga va ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, fikr-xayolini band etib, ezgulikka, jasoratga, fidokorona mehnatga da'vat etadi. San'at ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos formasi bo'lib, bu forma orqali voqelikni badiiy aks ettiradi, u dunyoni estetik o'zlashtirishning eng muhim usullaridan biridir. Kishilik jamiyati taraqqiyoti davomida san'at turlari: adabiyot, rassomchilik, xalq amaliy san'ati, haykaltaroshlik, qo'shiq, kino, teatr, musiqa va hokozolar vujudga keldi. San'atning ana shu turlaridan biri raqs san'atidir. Raqs san'ati kishilarni go'zallik va nafosat olamiga yetaklaydi, yosh avlodning ma'naviy dunyosini har tomonlama boyitadi, takomillashtiradi, olijanob fazilatlarini takomillashtirishga ko'mak beradi. Raqs – inson oromi, zavq-shavqidir[4:8].

O'zbek milliy raqsi xalqimizning asriy qadriyatlarini, orzu-umidlari va nafosat olamini o'zida mujassam etgan jonli tarixdir. Ushbu san'at turi asrlar davomida "ustoz-shogird" an'alarining zarrin iplari bilan boyitilib, sayillardan choyxonalargacha, saroylardan muhtasham sahnalargacha bo'lgan sharafli va mashaqqatli yo'lni bosib o'tdi. Raqqosaning har bir harakati, barmoqlarining nafis titrovi va ma'nodor nigohi zamirida millatning estetik dunyoqarashi yashirin bo'lib, u tomoshabin qalbini ezgulik va go'zallikka oshno etadi. Raqs obrazi ustida ishlash jarayoni esa san'atkorning ichki dunyosini qayta kashf etuvchi haqiqiy ma'naviy repetitsiyadir. Sahna mahoratining chinakam siri ham aynan mana shu "jonli organik harakat"dadir.

O'zbek raqsi o'zining rang-barang maktablari va uslublari bilan zamonlar osha yashab kelayotgan ekan, u doimo inson ruhiyatini yuksaltiruvchi va millat g'ururini tarannum etuvchi bitmas-tuganmas ilhom manbai bo'lib qolaveradi. Endilikda professional raqs ta'limi istiqboli dars soatlarini ko'paytirish bilan emas, o'zbek raqs tarixini zamonaviy ilmiy metodlar asosida tadqiq etish va unga innovatsiyalarni to'g'ri tatbiq qilish bilan belgilanadi. Milliy raqs san'atining hayotiyligi uning tarixiy qatlamlarini manbashunoslik, san'atshunoslik hamda etnografiya nuqtai nazaridan chuqur o'rganish, har bir harakatning terminologik va falsafiy asoslarini ilmiy tasdiqlash zarurati ham mavjuddir. Bunday yondashuv badiiy sifatni oshirish barobarida, milliy maktabning professional fundamental nazariy asoslarini mustahkamlaydi hamda raqs san'atining kelajak avlodlarga xatosiz yetkazilishiga xizmat qiladigan metodik poydevor bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimova R. O'zbek raqslari. – Toshkent.: Cho'lpon, 2003. – 168 b.
2. Avdeyeva L. A. O'zbekiston raqs san'ati. – Toshkent.: O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1960. – 192 b.
3. Abraykulova N. E. Raqs san'ati asoslari. – Toshkent.: Donishmand ziyosi, 2023. – 114 b.
4. Abraykulova N. Raqs jamoasi bilan ishlash uslubiyoti. – Toshkent.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2003. – 56 b.